

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Xojimatov</b>	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
<b>B.S.Sobirov</b>	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari .....	448
<b>D.A.Yuldasheva</b>	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi .....	451
<b>I.I.Qirg'izov</b>	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janriga aksiologik munosabatning yuksalishi .....	455
<b>I.T.Yuldashev</b>	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati .....	459
<b>L.E.Tursunova</b>	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari .....	462
<b>M.Achildiyeva</b>	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari .....	468
<b>N.X.Djalalova</b>	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida ....	473
<b>N.R.Mansurova</b>	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari .....	478
<b>O.R.Soliyev</b>	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi .....	488
<b>R.A.Orziboyev</b>	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili .....	491
<b>R.J.Soxibov</b>	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi .....	495
<b>A.B.Sulaymanova</b>	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics .....	500
<b>U.T.Isakov</b>	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi .....	503
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni .....	508
<b>J.Sh.Muydinov</b>	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati .....	511
<b>N.M.Madaminov</b>	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati .....	515
<b>M.T.Yunusaliyev</b>	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv .....	518
<b>D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari .....	524
<b>D.K.Rafikova</b>	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
<b>S.H.Mamajonov</b>	
Amir Temur mohir strategik.....	533
<b>D.M.Xolikova</b>	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	536
<b>O.S.Usmonova</b>	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish .....	544



UO'K: 75.03(092)

**YOSHLARNING BADIY TASAVVURI VA IJODKORLIK QOBILIYATLARINI  
RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI****РОЛЬ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В РАЗВИТИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО  
ВООБРАЖЕНИЯ И ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ МОЛОДЕЖИ****THE ROLE OF FINE ARTS IN THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC IMAGINATION AND  
CREATIVE SKILLS OF YOUTH****Boboyeva Zulfiya Akbarjonovna**   
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi**Annotasiya**

*Ushbu maqolada hozirgi globalashuv jarayonlarida ta'lim tizimida vujudga kelayotgan muammolar, tasviriy san'atning jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotidagi o'ri, hamda o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Аннотация**

*В данной статье говорится о проблемах, возникающих в системе образования в условиях современных глобализационных процессов, о роли изобразительного искусства в развитии человечества и общества, а также о важности развития художественного воображения и творчества учащихся.*

**Abstract**

*This article discusses about the problems arising in the education system in the context of modern globalization processes, the role of fine arts in the development of humanity and society, as well as the importance of developing the artistic imagination and creativity of students.*

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, innovatsion tafakkur, ijodkorlik, tasviriy savodxonlik, raqamli texnologiya, kommunikatsion texnologiyalar.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, инновационное мышление, креативность, визуальная грамотность, цифровые технологии, коммуникационные технологии.

**Key words:** New Uzbekistan, innovative thinking, creativity, visual literacy, digital technologies, communication technologies.

**KIRISH**

Bugungi axborot texnologiyalar asrida bilimli, har tomonlama kamolga yetgan, yangicha fikrlaydigan, o'z ustida mustaqil ishlaydigan, o'zi tanlagan mutaxassisligi bo'yicha yetuk va zamon talabiga javob bera oladigan yoshlarga bo'lgan e'tibor va talab ortib borayotgani, ularning ma'naviy, axloqiy tarbiyasini kuchaytirish, shaxsiy fazilatlarini, intellektual-ijodiy imkoniyatlarini yanada oshirish muammosi kun sayin dolzarb bo'lib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda ham shu muammoning yechimini topish maqsadida Prezidentimiz boshchiligidagi boshqa barcha sohalar qatori ta'lim tizimida uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar sifatini oshirish, ta'lim tizimiga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga doir katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Umimiy o'rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni ma'naviyatini milliy va umiminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, axloqiy va intellektual rivojlantirishning sifat darajasini ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning yangi zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi sifatida belgilangan. Bu esa o'z-o'zidan uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, badiiy tasavvurni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi.

Ijod - bu tabiiy instinkt va insonning tabiiy istagidir. Ijodkorlik - bu yangi g'oyalar, ramziylikni yaratish va mavjud ramziylikni yangilash, bir xillikdan voz kechish, hayotni yanada qiziqarli va



## PEDAGOGIKA

sermazmun qilish imkoniyatidir. Ijodkorlik oldingi g'oyalarni yangi g'oyalarga birlashtirish orqali mavjud tartiblarni qayta qura olish qobiliyatini anglatadi. Subhasiz, ijodkorlik-takomillashtirish va improvizatsiya yordamida yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatidir. Albert Eynshteyndan iqtibos keltirgan Xatena fikriga ko'ra, kreativlik bilim va ijodni shakllantirishda eng foydali hisoblanadi. Tasavvur bilim olish, olingan bilimga shakl berish va uni rivojlantirish uchun asosiy manbaadir. Tasavvur ko'rish, harakat va ijodkorlik dunyosidan paydo bo'ladigan energiyani shakllantiradi. Ijodkorlikning me'yoriy darajasi tasavvur aqliy va hissiy harakatlarga tayanganda sodir bo'ladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Inson faoliyatida barcha sohalar muhim, shu jumladan, insoniyatning ijtimoiy, madaniy, hatto iqtisodiy rivojlanishida ham tasviriy san'at alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlab hozirga qadar jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tasviriy san'atning munosib o'ri bo'lganligini ko'ramiz.

Tarixiy dalillar, ma'lumotlarda qayd etilishicha deyarli barcha ixtirolar, asosan musiqachilar, rassomlar, yozuvchilar va shoirlar tomonidan o'ylab topilgan. Chunki bu olimlar mana shu fanlarni yaxshi bilganlar. Shoir va adabiyotshunos Galiley, skripkachi ixtirochi Eynshteyn, matematik, buyuk rassom Leonardo da Vinchi, buyuk fan va adabiyot arbobi, mexanika, fizika, ximiya, astronomiya, geografiya, poeziya bilan bir qatorda rassom sifatida rus san'ati tarixida yorqin iz qoldirgan M.V.Lomonosov, morze alifbosini ixtiro qilgan portretchi rassom Sam'yuel Morze, "Alisa mo'jizalar mamlakatida" kitobidagi illyustratsiyalar muallifi, rassom va matematika fanlari professori Lyuis Kerroll, grafikachi rassom va optic fizika olimi, teleskop ixtirochisi Robert Vil'yams Vud, rassom, insulin kashfiyorchisi, Nobel mukofoti sohibi, Frederik Banting, penisellin dorisi va san'atda "bakteriyalar rangtasviri" deb nomlangan yangi yo'nalishni kasf etgan Aleksandr Fleming, kvant fizikasi va "nyu" janridagi kartinalar sohibi, Nobel mukofoti layreati Richard Fillips Feynman, Geliobiologiya asoschisi, shoir, musiqachi va rassom Aleksandr Chijevskiy, impossibilizm (yoki impart-g'ayrioddiy san'at) algebra va geometriya darsliklariga illyustratsiyalar ishlagan rassom, olim Maurits Kornelis Esherlar aynan tasviriy san'atning har xil janrlarida ijod qilish bilan birga olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirganlar.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Yangi O'zbekistonni barpo etish sari qadam qo'yilayotgan bir davrda yangicha fikrlaydigan, bilimdon, zukko, o'z sohasida etuk va zamon talabiga javob bera oladigan shaxslarga bo'lgan e'tibor va talab ortib borayotgani, yana bir karra, zamon talabiga muvofiq ta'limni va sifatli tashkil etilgan ta'limni joriy etish masalasi dolzarb qilib qo'yilmoqda. Shu sababli ham, bilimdon, tashabbuskor, jamiyatda faol va o'z mehnatsevarligi, fidoiyligi bilan dunyoni zabt eta oladigan shaxsni shakllantirish bugungi kun talabiga aylanib bormoqda.

Sotsiologik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z imkoniyatlarini yaxshi bilgan, ijodiy salohiyatini anglagan shaxs bosiq, keng mulohaza qilish xislatlariga ega bo'ladi. Va bu insonning o'zi uchun ham, umuman jamiyat uchun ham foydali bo'lib, o'zini-o'zi takomillashtirish yo'lida kelgusida o'zi va butun jamiyat uchun ham foydali faoliyat yuritadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun jamiyatga shunday mulohazali, badiiy tasavvuri, ijodiy tafakkuri keng, murakkab vaziyatlarda o'zi va jamiyat uchun ham qulay sharoit yarata oladigan insonlar juda zarur.

Tajribalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, rivojlangan mamlakatlarning jadal taraqqiy etishining asosiy sabablaridan biri – o'z vaqtida millat tarbiyasini to'g'ri tashkil etib, amalga oshirganligi hisoblanadi. Shubhasiz, O'zbekistonda ham shunga o'xshash puxta o'ylangan ta'lim tizimi mavjud. Biroq, uni amalga oshirishning asosiy mazmuni ta'limning barcha sohalarini, birinchi navbatda, ta'limni to'g'ri tashkil etishni talab etadi. Shu ma'noda uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida san'atdan foydalanish ta'lim tizimini mazmun jihatidan boyitadi.

XXI asrda axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida, xususan tasviriy san'at fanini o'qitishda ham zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini yanada oshirishni taqozo qilmoqda. Shu sababdan, respublikamizda tasviriy va xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirish, ta'lim jarayonida o'quvchilarda badiiy-estetik tarbiya va mustaqil izlanuvchanlik, yaratuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tasviriy san'at" fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda grafik va tasviriy savodxonlikni oshirish, badiiy tasavvurini, tafakkurni, ijodkorliklarini rivojlantirish, estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish orqali hayotda zarur bo'lgan bilimlarni



egallash, nafosat tarbiyasini oshirish, ularni kundalik faoliyatlarida foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Bunday vazifa, maktabdagi barcha fanlar doirasida o'qitishda qo'yilsagina o'z natijasini beradi. Ammo, tan olish kerakki, bugungi kunda ta'lim amaliyoti, ayniqsa "Tasviriy san'at" fanini o'qitish jarayoni bunday yechimdan uzoqroqdir. Masalan, maktab o'quv dasturining o'zagini tashkil etuvchi mavzular, eng avvalo, katta hajmdagi bilimlarni o'zlashtirishni nazarda tutadi. Bu esa, fanning o'quv dasturi tasviriy va amaliy san'atning tegishli sohasiga asoslanganligini, ularning mazmunini tushunish uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Ammo shuni e'tirof etish kerakki, tasviriy san'atni o'qitishda maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari o'qituvchi eng ilg'or pedagogik texnologiyalarga murojaat qilgan taqdirda ham haftasiga 1 soat o'tilishi hisobiga juda cheklangan. Qolaversa, moddiy-texnik bazaning, tasvirlash vositalarining qimmatligi va aksariyat holatda tasviriy san'at uchun mo'ljallangan maxsus dastgohlarning yetishmasligi tufayli o'quvchilarning har qanday ijodiy ishlarini tashkil etishdagi muammolarni keltirib chiqaradi.

Tasviriy san'atni o'qitish sohasi tubdan ko'plab imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, dunyo miqyosida bugungi kunda san'at va texnologiyaning integratsiyasi natijasida yangi sohalarining paydo bo'layotganligini inobatga olinsa. Ammo, fan bo'yicha kerakli bilim va malakalarni o'zlashtirish uchun maktab o'quv rejasida ajratilgan vaqtning yetarli emasligi, fanning o'quvchilar ijtimoiy hayotidagi imkoniyatlarini ham chegaralab qo'yadi. Agar ilmiy fanlar bo'yicha o'quv faoliyatining maqsadi shu fangagina tegishli bo'lgan fan asoslarini o'zlashtirish bo'lsa, o'quv-badiiy faoliyatning maqsadi - san'at asarlarini yaratish, idrok etish, talqin qilishdir. Bu raqamli texnologiyalar asosida ijodiy ish yaratishni o'rgatishga ham taalluqlidir.

XXI asrda axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi barcha sohalaridagidek ta'lim tizimida, xususan tasviriy san'at fanini o'qitishda ham zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini yanada oshirishni taqozo qilmoqda. SHu boisdan ham, respublikamizda tasviriy va amaliy san'atni yanada rivojlantirish, ta'lim jarayonida o'quvchilarda ma'naviy tarbiya va ijodkorlik, yaratuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Tasviriy san'at fanini o'qitilishi ham umumiy o'rta ta'lim tizimida o'ziga xos ahamiyat kasb etib, ma'naviy sog'lom yosh avlodni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega. "Tasviriy san'at" darslarida san'at va san'atkor olami, san'atning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va xususiyati, uning ifodaviy tasvirlash vositalarini o'zlashtirish orqali o'quvchilarda tabiatdagi, bizni qurshab turgan atrof muhit, tasviriy, amaliy san'at va me'morchilikdagi go'zalliklarni his qilish, ko'ra bilish, qadrlash, gurur hissini tuyish va ehtiyot qilishga o'rgatiladi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim tizimi Tasviriy san'at fani o'qituvchisidan shu fan mazmun-mohiyatining muhim-"hayotdan-san'at orqali-hayotga" tamoyiliga tayanish, ya'ni o'quvchilarning shaxsiy-hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy qiziqishlariga mos keladigan darslarni tashkil etishni taqozo qiladi. Hozirgi kun pedagogi o'quvchilar bilan ishlaganda o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini yanada samaraliroq rivojlanishiga yordam berishi, o'quvchilarning aqliy va amaliy malaka va ko'nikmalarini faollashtirishga undaydigan ta'lim usullari va shakllarini qo'llashga e'tibor qaratishi lozim. Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasasidagi shart-sharoitlarni va o'z imkoniyatlaridan to'la foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022-2026 йилларда Халқ таълимини ривожлантириш бўйича Миллий дастурни тасдиqlаш тўғрисида"ги Фармонлари. 2022 йил 11 майдаги ПФ-134-сон
3. Sultonov X.E "Tasviriy san'atning o'quvchilar intellectual-ijodiy salohiyatiga ta'siri". Zamonaviy ta'lim. 2022. №9
4. Boboeva, Z. (2023). METHODS OF FORMING TEACHER'S COMMUNICATIVE CULTURE. *Science and Innovation*, 2(B5), 412-416.